

Journal of Social Research in Uzbekistan

THE INTERRELATION OF PARADIGMATIC AND SYNTAGMATIC ASSOCIATIONS IN SHAVKAT RAHMON'S POETIC LANGUAGE

Shukhrat Makhmudov

Associate Professor

Tashkent Kimyo Technology University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Shavkat Rahmon, associative linguistics, paradigmatic relation, synonymy, antonymy, paronymy, homonymy, hyperonymy, hyponymy, associative field, linguopoetics, cognitive linguistics, poetic thinking.

Received: 09.10.25

Accepted: 10.10.25

Published: 11.10.25

Abstract: This article provides a comprehensive linguistic and poetic analysis of the system of associations based on paradigmatic relations between words in the poetry of Shavkat Rahmon, a prominent representative of modern Uzbek literature. The study examines how paradigmatic relationships—such as synonymy, antonymy, paronymy, homonymy, hyperonymy, and hyponymy—form associative links that shape poetic meaning and convey philosophical ideas. The research reveals that in Shavkat Rahmon's poetic discourse, the interaction of lexemes within paradigmatic associations serves as a mechanism for expressing emotional depth, existential reflection, and the poet's aesthetic worldview. The article also discusses the cognitive and psycholinguistic foundations of associative thinking, emphasizing its role in the creation of individual poetic style. The findings demonstrate that paradigmatic associations in Shavkat Rahmon's poetry are not only linguistic phenomena but also reflections of the poet's cultural memory and national consciousness, contributing to the broader understanding of associative linguistics in Uzbek poetic language.

SHAVKAT RAHMON SHE'RIY TILIDA PARADIGMATIK VA SINTAGMATIK ASSOTSIATSIYALAR O'ZARO MUNOSABATI

Shuxrat Maxmudov

Dotsent

Toshkent Kimyo-Texnologiya Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Shavkat Rahmon, assotsiativ tilshunoslik, paradigmatic aloqa, sinonimiya, antonimiya, paronimiya, omonimiya, giperonimiya, giponimiya, assotsiativ maydon, lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik, badiiy tafakkur.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oʻzbek zamonaviy sheʼriyatining yorqin vakili Shavkat Rahmon ijodida soʻzlarning paradigmatic aloqasiga asoslangan assotsiatsiyalar tizimi lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoirning poetik matnlarida soʻzlar oʻrtasida hosil boʻladigan paradigmatic munosabatlarning — sinonimiya, antonimiya, paronimiya, omonimiya, giperonimiya va giponimiya kabi semantik aloqalarning — badiiy tafakkurdagi assotsiativ jarayonlar bilan bogʻliqligi ochib beriladi. Maqolada assotsiativ birliklarning shakllanishida paradigmatic oʻxshashlik, zidlik, uyadoshlik va metaforik turtkilar qanday estetik maʼno yaratishini koʻrsatib berish maqsad qilingan. Shavkat Rahmon sheʼriy nutqida soʻzlarning paradigmatic bogʻlanishi orqali insonning ichki ruhiy holati, zamon, hayot va abadiyat haqidagi falsafiy tushunchalar ifodalanishi tahlil etiladi. Shuningdek, assotsiatsiya jarayonining kognitiv, psixolingvistik va estetik omillar bilan aloqadorligi, shoirning individual uslubini shakllantirishdagi roli ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijasida Shavkat Rahmon sheʼriyati misolida paradigmatic aloqalarning nafaqat leksik birliklar oʻrtasidagi semantik bogʻlanishni, balki ijodkor tafakkurining milliy, madaniy va falsafiy qirralarini ham aks ettiruvchi badiiy tizim sifatida namoyon boʻlishi isbotlangan.

**ВЗАИМООТНОШЕНИЕ ПАРАДИГМАТИЧЕСКИХ И СИНТАГМАТИЧЕСКИХ
АССОЦИАЦИЙ В ПОЭТИЧЕСКОМ ЯЗЫКЕ ШАВКАТА РАХМОНА**

Шухрат Махмудов

Доцент

Ташкентский химико-технологический университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Шавкат Рахмон, ассоциативная лингвистика, парадигматические отношения, синонимия, антонимия, паронимия, омонимия, гиперонимия, гипонимия, ассоциативное поле, лингвопоэтика, когнитивная лингвистика, художественное мышление.

Аннотация: В статье проводится детальный лингвопоэтический анализ системы ассоциаций, основанных на парадигматических отношениях слов в поэзии Шавката Рахмона — одного из ярких представителей современной узбекской литературы. В исследовании рассматриваются парадигматические связи — синонимия, антонимия, паронимия, омонимия, гиперонимия и гипонимия — как основа формирования ассоциативных полей,

определяющих семантику и художественную выразительность поэтического текста. Показано, что парадигматические отношения слов в поэзии Шавката Рахмона служат средством передачи философского осмысления мира, внутреннего состояния человека и эмоционального напряжения. Особое внимание уделяется когнитивным и психолингвистическим аспектам ассоциативного мышления, его роли в формировании индивидуального стиля поэта. Сделан вывод, что система парадигматических ассоциаций в творчестве Шавката Рахмона является не только языковым явлением, но и отражением национального менталитета, культурных кодов и эстетических ценностей узбекской поэтической традиции.

Jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar har bir jabhadda ko'zga tashlanishi tabiiy hodisa hisoblanadi. Xususan, tilshunoslik sohasi ham bundan mustasno emas. XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib, inson hayotining ajralmas bir qismi hisoblanadigan ilm-fan taraqqiyotida ham tub burilishlar yuzaga keldi. Buning natijasida shu davrga qadar fanlar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga, farazlarga yangicha yondashuvlar, yangidan yangi qarashlar shakllandi.

O'tgan asrning oxirlaridan boshlab tilni shaxs omili bilan bog'liq holda tadqiq etish metodologiyasi asosida tadqiq etishga asoslangan antroposentrik tilshunoslikning bir-birini to'ldiruvchi bir nechta yo'nalishlari ajralib chiqdi. Bu esa tilni grammatik shakllar asosida tahlil qilishga asoslangan an'anaviy tilshunoslikdan farqli ravishda o'rganish mumkinligini ko'rsatib berdi. Antroposentrik tilshunoslikdan psixolingvistika, pragmatolingvistika, satsiololingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, neyrololingvistika kabi ajralib chiqqan yo'nalishlarning barchasi o'ziga xos bo'lgan o'rganish obektiga, maqsad va vazifalariga, taxlil metodlariga ega yo'nalishlar hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tarmoqlar ichida tilni inson omili bilangina tadqiq etish metodiga asoslangan yo'nalish bu - assotsiativ tilshunoslik sohasidir. Assotsiativ tilshunoslikda til nafaqat o'zaro munosabatdagi birliklar yig'indisidan tashkil topgan tizim sifatida, balki bir-biri bilan assotsiativ bog'langan verbal tarmoq sifatida ham tasavvur etiladi. Bundan ko'rindiki, til inson onggi tuzilmasida bir-birini taqozo etuvchi til birliklari yig'indisidan tashkil topgan bir butun tuzilma sifatida tadqiq etilish lozim bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunga qadar jaxon va o'zbek tilshunosligida bir qator ishlarda assotsiativ tilshunoslik sohasiga oid ilmiy qarashlar berildi. Har bir ishda ushbu tilshunoslik sohasining imkoniyatlari, muammo va ushbu muommoga yechim masalalari ko'rsatib o'tildi.

Shunisi qiziqki, assotsiativ munosabat dastlab tilshunoslik sohasida emas, balki falsafada e'tirof etilgan bo'lib, Aristotel, Platon, J.Lukk singari faylasuflar ijodida ko'zga tashlanadi. Assotsiatsiya termining kirib kelishi ham, aynan, J. Lukk faoliyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Keyinchalik, aniqrog'i, XIX asrda Angliya psixologlari tomonidan psixik jarayonlarni o'rganishga asoslangan assosativ yondashuvga e'tibor qaratila boshlandi va bu psixologik assotsiatiyaning shakllanishiga sabab bo'ldi.

Vaqt o'tib falsafiy va psixologik assotsiatsiyalar negizida tilshunoslikda ham ilk assotsiativ munosabat haqidagi qarashlar shakllana boshladi. Bu qarashlar nemis olimi V.Humbold, F.de Sossyur, I.Goroshkoning singari tilshunoslar asarlarida ilk assotsiativ qarashlar sifatida o'z aksini topdi. Vaqt o'tib, rus va g'arb tilshunoslari ham assotsiatsiya masalasiga jiddiy to'xtalib, assotsiatsiyaning maqsad va vazifalari, o'rganish obyekti, predmeti, muomo va yechimlari masalalariga e'tibor qaratdilar.

Bugungi kunga kelib, o'zbek tilshunosligida ham bir qator ishlarda assotsiatsiya masalalasida fikrlar, individual qarashlar kuzatilmoqda. O'zbek tilshunosligida assotsiatsiya haqidagi ilk nazariy qarash A.Nurmonovning "Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari" nomli o'quv qo'llanmasida berilgan bo'lsa, keyinchalik I. Azimova, D. Xudoyberganova, Sh.Iskandarova, N.Hoshimovalarning ishlarida bu masalada ba'zi mulohazalar berib o'tildi. E'tiborli jixati shundaki, assotsiatsiya masalasida professor D.Lufullayeva tomonidan maxsus monografiya yaratildi, bu esa o'z navbatida bir nechta nomzodlik dissertatsiyalarining ilmiy maydon yuzini ko'rishiga turtki bo'ldi. Xususan, B.Tojiboyev, H.Raxmonovlarning nomzodlik ishlarida o'zbek tilshunosligida assotsiatsiya masalasi atroflicha o'rganilib, qimmatli ilmiy xulosalar berildi.

Tilda assotsiativ birliklarning shakllanishida ikki omil: lingvistik va ekstralingvistik omillar turki bo'lishi sir emas. Lingvistik omillar sifatida tilshunoslikning ma'lum bir bo'limlarida o'rganiladigan birliklar(leksik, grammatik, uslubiy birliklar) qaralsa, ekstralingvistik omillarga til egalarining voqelik haqidagi bilimlari, ko'nikmalari, yoshiga xos jixatlari va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Har bir ijodkor, til egasi o'z ijod namunasini, nutqini yaratar ekan shartli refleks sifatida til birliklarining assotsiativ munosabatini shakllantiradi va shu birliklar assotsiatsiyasida ifodalamoqchi bo'lgan fikrini ro'yobga chiqaradi. Biz bugun o'rganmoqchi bo'lgan Shavkat Rahmon ijodi ham bundan mustasno emas, albatta.

Shavkat Rahmon ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ushbu ijodkor ijodida ham aksariyat shoirlar singari she'rlarda qo'llangan assotsiativ birliklarning lingvistik va ekstralingvistik omillar tasirida yuzaga kelganini korishimiz mumkin.

Ijodkor she'rlarida, asosan, quyidagi lingvistik omillarning assotsiativ birliklarning hosil bo'lishida tayanch vazifasini o'taganligiga guvoh bo'lamiz:

1. Soʻzlarning paradigmatic va sintagmatik aloqasi.
2. Soʻzlarning uslubiy belgisiga koʻra aloqadorligi.
3. Soʻzlarning devirion belgisiga koʻra aloqadorligi.
4. Soʻzlarning dialektal belgisiga koʻra aloqadorligi.
5. Soʻzlarning milliy-madaniylik belgisiga koʻra aloqadorligi.
6. Soʻzlarning ishtimoiylik va gender belgisiga koʻra aloqadorligi.

Biz bugungi ishimizda Shavkat Rahmon sheʼriyatida yuqorida koʻrsatib oʻtilgan lingvistik omillardan soʻzlarning paradigmatic aloqasi asosida maydonga kelgan assotsiatsiya haqida fikr yuritamiz.

Maʼlumki, ijodkor oʻz ijodi mahsuli hisoblanmish sheʼriy misralarini yaratishda ixtiyoriy-noixiyoriy ravishda assotsiativ munosabatdagi birliklarga murojaat qiladi. Ushbu murojaatsiz sheʼriy miradagi maʼlum aloqadorlikdagi soʻzlar bogʻlanishi kuzatilaydi. Ushbu assotsiativ birliklar oʻzaro aloqasida ularning paradigmatic va sintagmatik munosabati muhim oʻrin tutadi. Soʻzlarning paradigmatic munosabatiga asoslangan assotsiatsiya maʼlum bir oʻxshashlik yoki yondoshlik belgisi asosida birlashtiruvchi belgiga ega boʻlgan soʻzlar assotsiatsiyasidan hosil boʻlsa, soʻzlarning sintagmatik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya assotsiativ munosabatdagi soʻzlarning grammatik jixatdan bogʻlanib, matnning grammatik konstruksiyasini hosil qiladi.

Soʻzlarning paradigmatic munosabatiga asoslangan assotsiatsiya omonim, sinonim, antonim, uyadoshlik, paronim va giper-giperenomik munosabatdagi soʻzlar, shuningdek, dublet soʻzlar oʻrtasida kuzatilishi bizga maʼlum hodisa. Shavkat Rahmon ijodida ham ushbu holat turtki soʻz – assotsiativ birlik yoki assotsiativ birlik – assotsiativ birlik qolipidagi assotsiatsiyalarda kuzatiladi.

Shavkat Rahmonning quyidagi sheʼrida soʻzlarning sinonimik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya kuzatilgan:

Yogʻiladi mayin sas, sado,
yogʻar, yogʻar shomurut qori,
naqadar xush jodugar navo,
ozod qora sochlar ifori.

Mazkur sheʼriy parchada assotsiativ birlik – assotsiativ birlik qolipidagi sas – sado sinonimiyasiga asoslangan assotsiatsiya ishlatilgan.

Paradigmatic munosabatdagi birliklar ichida assotsiativ munosabatni hosil qiladigan eng sermahsul birlik bu - antonimlikdir. Antonim soʻzlarning birini aytish bilan ikkinchisi hayolimizda tiklanish qonuniyati til egasi xotirasida togʻridan toʻgʻri assotsiatsiyani hosil qiladi. Xususan, Shavkat Rahmonning quyidagi sarlavhasiz sheʼrida ham bu jarayon koʻzga tashlanadi:

Bulutlar oʻtlagan adirda
Chiroyli kunduzdan kechaman,

Sharobday totimli bu tunni
Tomchilab, tomchilab ichaman.

Ushbu she'riy misrada ajratib ko'rsatilgan kunduz – tun so'zlari so'zlarning antonimik munosabadiga asoslangan jamoaviy harakterdagi assotsiatsiyani hosil qilgan.

Shavkat Rahmonning “Vaqt” deb nomlangan sarlavhali she'rida ham so'zlarning antonimik munosabatiga asoslangan assotsiatsiyani ko'rishimiz mumkin:

Vaqt

Vaqt senga qul bo'lmas aslo,
Undan kutma muruvvat, tama,
Sig'in unga, yolvorgin, avra,
Bir amallab vujudga qama.

Berilgan she'riy misrada muruvvat, tama so'zlari o'zaro antonimik munosabatda bo'lib, o'zaro zid ma'no ifodalash qonuniyati asosida o'xshashlik hosil qiladi va bu jumlada inson xotirasida bir-birini taqazo etganligi sababli assotsiativ maydon hosil qiladi. Ushbu so'zlar ham assotsiativ birlik – assotsiativ birlik qolipidagi assotsiatsiyani yuzaga keltirgan.

Shavkat Rahmon she'rlarida uyadoshlik munosabatiga asoslangan assotsiatsiyalar ko'plab uchraydi. Uyadosh so'zlar o'z navbatida she'riy misralarda tanosub badiiy san'atini hosil qiladi. Quyida Shavkat Rahmonning uyadoshlik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya kuzatilgan she'riy misralarini ko'rib o'tamiz:

Buxoroda

Oy nuriga mangu ko'milgan
obidalar, gumbaz, binolar
maydonlarda adashib qolgan
yo'lovchidek qotgan minorlar

Majnuntollar ko'tarar boshin,
yana raqsga tushar teraklar
va xotirjam yashay boshlaydi
meni uzoq kutgan yuraklar

Birinchi she'riy parcha sarlavhali she'r bo'lib, she'rning sarlavhasi assatsativ maydonning yadro qismi hisoblanmish turki so'z vazifasini bajargan. She'rda shoirning Buxoroda bo'lgan kezlariidagi Buxoroning minoralari, maydonlari, shahar va undagi yo'lovchilar haqidagi taasurotlari aks etgan. She'riy misrada qo'llangan obidalar, gumbaz, binolar, minorlar so'zlari uyadoshlik munosabatida bo'lib, ularning ozaro assotsiatsiyativ maydon hosil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Keying she'riy parcha sarlavhasiz she'riy parcha bo'lib, unda qo'llangan majnuntallar va teraklar so'zlari o'zaro uyadoshlik munosabatidagi birliklar hisoblanadi. Ushbu so'zlar assotsiativ birlik – assotsiativ birlik shaklidagi assotsiatsiyani hosil qilgan.

Ijodkor she'riyatini tahlil qilar ekanmiz, unda talaffuzdosh, lekin turli ma'no va shaklga ega bo'lgan birliklar hisoblanmish paronim so'zlarning assotsiatsiya hosil qilganligiga guvoh bo'ldik:

Bag'ri yomon battollarga bor,
Qaxri yomon qattollarga bor;
Qon yalagan qassoblarga bor,
So'z o'ynagan kazzoblarga bor...

Shoirning ushbu she'ri sarlavhasiz she'r bo'lib, matnda takror qo'llanib kelaytgan bor so'zi stimul so'z sifatiga olinadi. She'rda qo'llangan battollarga – qattollarga so'zlari talaffuzdoshlik xususiyati bilan til egalari xotirasida biri ikkinchisini yodga soladi, bu esa paronimik munosabatda bo'lgan ushbu birliklarning assotsiativ birlik – assotsiativ birlik qolipidagi assotsiativ maydonga birlashuvini taqozo etadi.

Shavkat Rahmonning quyidagi sarlavhasiz she'riy parchasida butun-qism munosabatiga asoslangan assotsiatsiya kuzatilgan:

Tog'larga bor, dalalarga bor,
Nurga to'ldir umrning damin.
Tuproqni o'p, yalinib yolvor,
Gunohingni kechirar zamin.

Ushbu she'riy parchada qo'llangan dalalarga so'zi butunni, tuproqni so'zi esa qismni ifodalab, butun-qism munosabatidagi assotsiatsiyani shakllantirganligini ko'rishimiz mumkin

Shavkat Rahmon "Eslash" deb sarlavhalangan she'riy parchasida jins-tur munosabati hisoblanmish gipo-giponomik munosabatdagi birliklarning assotsiatsiya hosil qilishi ham ko'zga tashlanadi.

O'y surib ohista ketaberasan,
Qosh ham qorayadi, oy ham yorishar,
Ko'chadan ko'chga o'taberasan,
Yalangto'sh o'smirlar,
Qizlar kulishar.

Ushbu she'riy parchada o'smirlar – qizlar gipo-giponomik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya ishlatilgan.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon she'riy matnlari tahlilidan shuni shuni ko'rish mumkinki, adib adabiy me'rosida leksemalarning paradigmatic munosabati hisoblanmish sinonim,

omonim, antonim leksemalarning assotsiatsiya hosil qilish imkoniyatlaridan o`rinli foydalanib, o`zbek adabiyotida o`z o`rniga ega bo`lgan buyuk ijod namunasini yarata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017.
2. – 3 б.
3. Мартинович Г.А. Вербальные ассоциации в ассоциативном эксперименте. СПб., 1997.
<http://davaiknam.ru/text/g-a-martinovich-verbalenie-associacii-v-associativnom-eksperim-page-5/>
4. Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента:
<http://www.textology.ru/article.aspx?aId=90/Соссюр Ф. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – С. 155.>
5. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015.
6. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2008./
7. Нурмонов А.Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008.
8. X. Rahmonov Omon Matjon she'riy matnlarining assatsiativ struktutasi. Fal.fan dok. PhD. Q`qon – 2023.